

## 2019 yil 1 sentyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 4288 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2018 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3535 ta (16,0 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 25593 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019 yilning 1 sentyabr holatiga 25593 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,4 % savdo, 21,1 % sanoat, 7,4 % qurilish, 6,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 26,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Umumiy soni, birlik		01.09.2019 yil	
	01.09.2018 yil	01.09.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>22058</b>	<b>25593</b>	<b>116,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1616	1760	108,9	6,9
Sanoat	4307	5399	125,4	21,1
Qurilish	1640	1905	116,2	7,4
Savdo	5343	6769	126,7	26,4
Tashish va saqlash	787	961	122,1	3,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	885	1123	126,9	4,4
Axborot va aloqa	344	360	104,7	1,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	493	544	110,3	2,1
Boshqa turlari	6643	6772	101,9	26,5

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar sonining eng ko'pi Namangan shahri (9434 ta), Chust (2092 ta), Namangan (1779 ta) va Uychi (1600 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1046 ta), Norin (1087 ta) hamda Yangiyo'rg'on (1278 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 25048 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3966 ta (18,8 %)ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,2 % savdo, 21,3 % sanoat, 7,4 % qurilish, 6,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9186 ta), Chust (2023 ta), Namangan (1748 ta), Uychi (1591 ta) va Kosonsoy (1520 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1043 ta), Norin (1079 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1245 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019 yil yanvar-avgust oylarida 4288 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,9 martaga ko'pdir.


### 2019 yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1262 ta), Chust (352 ta), Pop (342 ta) va Uchqo'rg'on (312 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (213 ta), Yangiqo'rg'on (217 ta) hamda Norin (236 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019 yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1704 ta), sanoat (1146 ta), qurilish (346 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (253 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (37 ta), axborot va aloqa (48 ta) hamda tashish va saqlash (158 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019 yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalarini**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019 yil 1 sentyabr holatiga 20761 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususi korxonalar - 6514 ta, oilaviy korxonalar - 454 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 13254 ta, unitar korxonalar - 155 ta, aksiyadorlik jamiyatlari - 26 ta va boshqalar 358 tani tashkil etgan.




**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*


Mas`uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**


2019-yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 200 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 81 taga yoki 68,1 %ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1 sentyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 200 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng ko`pi Namangan shahri (69 ta), Kosonsoy (20 ta), Chortoq (17 ta), Uychi, Chust (16 tadan) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamklari Mingbuloq(4 ta), Namangan (5 ta) hamda Uchqo`rg`on (6 ta) tumanlariga to`g`ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar yillar kesimida soni, birlikda  
(1 sentyabr holatiga)**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda**




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 134 tasi qo'shma korxonalar, 66 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar  
va xorijiy korxonalar soni, birlikda**



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining faollik darajasi, %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Namangan viloyati</b>	<b>200</b>	<b>100,0</b>
Namangan shahri	69	34,5
Mingbuloq	4	2,0
Kosonsoy	20	10,0
Namangan	5	2,5
Norin	9	4,5
Pop	15	7,5
To'raqo'rg'on	15	7,5
Uychi	16	8,0
Uchqo'rg'on	6	3,0
Chortoq	17	8,5
Chust	16	8,0
Yangiqo'rg'on	8	4,0

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yilning yanvar-avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 69 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahri (17 ta yoki jamidagi ulushi 24,6 %), Kosonsoy va Chortoq tumanlari (8 tadan yoki 11,6 %dan) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Namangan tumani (1 ta yoki 1,4 %), Mingbuloq hamda Uchqo'rg'on tumanlari (2 tadan yoki 2,9 %dan) hissalariga to'g'ri keladi.


### 2019 yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 9 ta, Turkiya Respublikasi - 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 12 ta, Qozog'iston Respublikasi - 2 ta va Koreya Respublikasi - 9 ta hamda boshqa davlatlar - 33 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-avgust oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (26 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (15 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 tadan) tashkil etilgan. Axborot va aloqa hamda tashish va saqlashda xorijiy kapital ishtirokida korxonalar tashkil etilmagan.


**2019 yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019 yil 1 sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 20650 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 23,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 7940 tasi (38,5 %) Namangan shahri, 1678 tasi (8,1 %) Chust, 1501 tasi (7,3 %) Namangan hamda 1311 tasi (6,3 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20560 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6524 tasi (31,6 %) - savdo, 5295 tasi (25,6 %) - sanoat, 1851 tasi (9,0 %) - qurilish, 1692 tasi (8,2 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1083 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 940 tasi (4,6 %) - tashish va saqlash, 442 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi, 331 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2492 tasi (12,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*





2019 yil yanvar-avgust oylarida 4132 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,2 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (1203 ta), Chust (343 ta), Pop (330 ta) va Uchqo'rg'on (307 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq (207 ta) hamda Yangiyo'rg'on (212 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019 yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa, eng ko'pi savdoda (1704 ta), sanoatda (1144 ta), qurilishda (346 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (251 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (37 ta), axborot va aloqada (48 ta) hamda tashish va saqlashda (158 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019 yilning 1 sentyabr holatiga 462 tani tashkil etib, ulardan 454 tasi yoki 98,3 %ni faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 45,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

#### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




#### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 47,8 % yoki 217 tasi sanoat, 17,0 % yoki 77 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,0 % yoki 68 tasi savdo, 8,8 % yoki 40 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5 % yoki 7 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 5 tasi axborot va aloqa, 0,7 % yoki 3 ta qurilish sohasi, 0,4 % yoki 2 ta tashish va saqlash hamda 7,7 % yoki 35 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa, tashish va saqlash hamda qurilish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Namangan viloyati</b>	<b>147</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	47	32,0
Mingbuloq	2	1,4
Kosonsoy	8	5,4
Namangan	8	5,4
Norin	10	6,8
Pop	7	4,8
To'raqo'rg'on	19	12,9
Uychi	5	3,4
Uchqo'rg'on	17	11,6
Chortoq	1	0,7
Chust	9	6,1
Yangiqo'rg'on	14	9,5

2019 yil yanvar-avgust oylarida 147 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,5 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Namangan shahri (47 ta), To'raqo'rg'on (19 ta), Uchqo'rg'on (17 ta), Yangiqo'rg'on (14 ta) va Norin tumanlari (10 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Chortoq (1 ta), Mingbuloq (2 ta), hamda Uychi (5 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


**2019 yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Sanoat



Savdo



Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Tashish va saqlash



Boshqa turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 44,2 % yoki 65 tasi sanoat, 22,4 % yoki 33 tasi savdo, 19,0 % yoki 28 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,5 % yoki 11 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,7 %dan yoki 1 tadan sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash, shuningdek, 4,1 % yoki 6 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qurilish sohasi bo'yicha yangi oilaviy korxonalar tashkil etilmagan.

**Namangan viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi  
Tel.:71-230-80-95(96)**